

9-sinf O'zbekiston tarixi

8-dars: Nazorat ishi-1.

Darsning maqsadlari:

1. Ta'limiy maqsad:

O'quvchilarning tarixiy bilimlarini chuqurlashtirish;
Tarixiy davrlar va yillarni ajrata oladi, tarixiy hisobini tushuntira oladi;
Mazkur davrni o'rganish orqali o'quvchilar tarix fanining o'rganilayotgan davriga oid tarixiy atamalar mazmunini, tarixiy shaxslar haqida, tarixiy sanalarda ro'y bergan voqealar haqida ma'lumot bera oladi hamda mazkur davrga oid tarixiy joylarni tarixiy xaritadan ko'rsata oladi, ma'lumot bera oladi.

2. Tarbiyaviy maqsad:

O'quvchilarni yangi bilimlar egallashga va tartib-intizomga doimo rioya etishga yo'naltirish hamda ularda ona Vatanga nisbatan muhabbat tuyg'ularini shakllantirish;
Tarixiy xotira, tarixiy tafakkurini shakllantirish.


3. Rivojlantiruvchi maqsad:

Mavjud tarix faniga oida axborot manbalaridan (internet, televizor, radio (audiovideo yozuv), telefon, kompyuter, elektron pochta va boshq.) foydalana olish;
Shaxs sifatida doimiy ravishda o'z-o'zini rivojlantirish, jismoniy, ma'naviy, ruhiy va intellektual kamolotga intilish;
Olgan bilimlaridan xulosalar chiqarish ko'nikmasini shakllantirish.

O'QUV JARAYONINI AMALGA OSHIRISH TEXNOLOGIYASI

Dars turi:	Nazorat darsi, bilimlarni mustahkamlash
Dars metodi:	"Individual ishlash"
Dars jihozi:	darslik, xarita, ko'rgazmali va didaktik materiallar, proyektor, AKT

DARSNING BLOK CHIZMASI:

№	DARS BOSQICHLARI:	Bajariladigan ish mazmuni	Ajratilgan vaqt	
1	Tashkiliy qism	Salomlashish, davomatni aniqlash, sinfni darsga tayyorlash, kun tarixi aytiladi	3 daqiqa	
2	O'tilgan mavzularni takrorlash	Takrorlash, mustahkamlash	35 daqiqa	
3	Darsga yakun yasash	Darsning so'ngi xulosasini chiqarish	5 daqiqa	
4	Uyga vazifa	O'qituvchi tomonidan uyga vazifa e'lon qilinadi va keyingi mavzuga tayyorlanib kelish yo'nalishini aytib o'tadi	2 daqiqa	

DARSNING BORISHI

I. Tashkiliy qism:

O'quvchilar davomati aniqlanadi. Sinfning darsga tayyorgarligi tekshiriladi. Darsda psixologik iqlim yaratish, dars shiori va maqsadini e'lon qilish.

O'qituvchi tomonidan bugungi kunda tavallud topgan mashhur shaxslar, yurtimiz va jahon maydonida sodir bo'lgan muhim ijtimoiy-siyosiy ma'lumotlar, bayramlar haqida **qisqacha** ma'lumot berib o'tiladi.

II. O'tilgan mavzularni takrorlash:

O'tilgan mavzu quyidagi savol va topshiriqlar yordamida mustahkamlanadi:





1-topshiriq

O'qituvchi quyidagi testlar (20 ta javobi belgilanadigan, 5 ta javobi yoziladigan) orqali nazorat ishini o'tkazishi mumkin.

TEST

- XIX asr o'rtalarida Buxoro amirligidagi iqtisodiy rivojlanish uchun mas'ul shaxs kim edi?**
A) Mushrif B) Devonbegi C) Qushbegi D) Parvonachi
- “Rossiya hukumatidan ijozat bo'lmagan, kim bo'lishidan qat'iy nazar, har xil kimsalarni Buxoro hukumati qabul qilmaydi”, deb qaysi hujjatda yozilgan edi?**
A) 1865-yil qabul qilingan “Turkiston o'lkasini boshqarish to'g'risidagi Muvaqqat Nizom”da
B) 1873-yilgi Buxoro-Rossiya shartnomasining 14-moddasida
C) 1886-yilgi “Nizom” da D) 1868-yilgi Buxoro – Rossiya shartnomasining 17-moddasida
- “Bizning milliy teatr san'atimiz tarixan juda katta yo'lni bosib o'tgan bo'lib, uning qadimiy ildizlari xalq o'yin va tomoshalariga borib taqaladi”, ushbu so'zlar Prezident I.Karimovning qaysi asaridan olingan?**
A) Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q B) Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch
C) Turkiston umumiy uyimiz D) Buyuk kelajak sari
- Shoir Ogahiy yozgan tarixiy, ma'rifiy va tarjima asarlari soni qancha?**
A) 16 ta B) 25 ta C) 12 ta D) 30 ta
- Ahmad Donishning Amir Muzaffar buyrug'i bilan yozilgan asarini aniqlang.**
A) “Manozir al-kavokib” B) “Navodir ul-vaqoe”
C) “Buxorodan Peterburgga sayohat” D) “Buxoroi sharif mang'it amirlari muxtasar tarixi”
- Hazrati Kalon Sohib madrasasi nechanchi yilda bunyod etilgan?**
A) 1862 yil B) 1871 yil C) 1852 yil D) 1872 yil
- 1843 yil Xivaga kelgan ingliz diplomatiyasi vakilini aniqlang?**
A) J.Ebbot B) D.Volf C) A.Byurns D) A.Konnoli
- Verniy qal'asi hozirda qaysi shaharda joylashgan edi?**
A) Ashxobod B) Orenburg C) Janbul D) Almati
- 1865-1868 yillarda ...**
A) Rossiya O'rta Osiyoda uzluksiz urush olib bordi B) O'rta Osiyoda yirik qo'zg'olonlar davri bo'ldi
C) Rossiyaning O'rta Osiyoga bosqinining ikkinchi davri bo'ldi
D) Rossiyaning O'rta Osiyoga bosqinining uchinchi davri bo'ldi
- Rossiya tomonidan O'rta Osiyo hududlarining bosib olinish ketma-ketligi to'g'ri keltirilgan javobni aniqlang?**
A) Avliyoota, Turkiston, Chimkent, Toshkent B) Oqmachit, Turkiston, Toshkent, Xo'jand
C) Chikent, Oqmachit, Jizzax, Toshkent D) Turkiston, Chimkent, Pishpak, Toshkent
- Ogahiy Xorazmning nechanchi yillar tarixini yozib qoldirgan?**
A) 1812-1839 yillar B) 1839-1872 yillar C) 1872-1911 yillar D) 1809-1873 yillar
- Quyidagi ta'riflarning qaysi biri Qo'qon shoiri Fazliyga tegishli?**
A) U xalq ozodlikka va erkka chiqish uchun kurashmog'i kerak, degan qat'iy qarorga kelgan
B) 1809-1874 yillarda yashagan
C) saroy shoirlarining boshlig'i – “Malik ush-shuaro” nomini olgan
D) U 18 mingdan ziyod misralik devonini avlodlarga meros qoldirgan
- Oqmachit qal'asi qaysi xonlikka qarashli bo'lgan?**
A) Qo'qon xonligi B) Xiva xonligi C) Buxoro amirligi D) Toshkent bekligi
- Tillashayx masjidi qaysi shaharda bunyod etilgan edi?**
A) Qo'qon B) Buxoro C) Xiva D) Toshkent
- 1865-yil tashkil qilingan Turkiston viloyati qaysi hudud tarkibiga kiritildi?**
A) Turkiston general-gubernatorligi B) Sirdaryo viloyati
C) Bevosita Rossiya imperiyasi D) Orenburg general-gubernatorligi
- 1868-yil tashkil qilingan Zarafshon okrugining markazi qaysi shahar bo'lgan?**
A) Samarqand B) Kattaqo'rg'on C) Buxoro D) Qarshi
- Turkiston general gubernatorligi tashkil qilingan paytda harbiy okrugdagi harbiylarning soni qancha bo'lgan?**
A) 30 ming B) 40 ming C) 50 ming D) 25 ming
- XIX asr o'rtalarida Xiva xonligi aholisi soni qancha bo'lgan?**
A) 2 mln. ga yaqin B) 1 mln. 300 ming C) 800 ming D) 1 mln.
- Xiva xonligida mehtar lavozimi qanday vazifani bajargan?**
A) xon farmonlarini aholiga o'qib eshittirgan B) xazina ishlari va xarajatlarini nazorat qilgan
C) bozordagi tosh-tarozining to'g'riligini tekshirgan D) qo'shinga qo'mondonlik qilgan
- Mirxondning “Ravzat us-safo” asarini o'zbek tiliga tarjima qilgan allomalarni aniqlang.**
A) Fazliy va Ahmad Donish B) Munis va Ogahiy C) Amiriy va Fazliy D) Munis va Bayoniy
- Bir yilda sodir bo'lgan voqealarni bir-biri bilan muvofiq joylashtiring.**



1	Qo`qon xonligi tugatildi	A	Turkiston harbiy okrugi tuzildi
2	Turkiston general-gubernatorligi tuzildi	B	Farg`ona viloyati tashkil topdi
3	“Manozir al-kavokib” asari yozildi	C	Gandimiyon shartnomasi imzolandi
4	Xiva xonligi bosib olindi	D	Toshkent bosib olindi

1-, 2- 3- 4-

22. 1844 yil Buxoroga kelgan ingliz diplomatiyasi vakilini aniqlang?

Javob: _____

23. Toshkentga qarshi birinchi hujumni boshlagan generalni aniqlang.

Javob: _____

24. XIX asr ikkinchi yarmida Toshkentning nechta darvozasi bo`lgan?

Javob: _____

25. “Majmuat ush-shuaro” tazkirasining muallifi kim?

I - NAZORAT ISHI JAVOBLARI

Test javoblari

1	2	3	4	5	6	7	8	9	10	11	12	13	14	15	16	17	18	19	20
B	B	B	A	A	A	A	D	C	A	B	C	A	D	D	A	B	C	B	B

21. 1-B, 2-A, 3-D, 4-C

22. mayor Volf

23. general Chernyayev

24. 12 ta

25. Fazliy

III. Dars yakunlarini chiqarish:



O'quvchilarda paydo bo'lgan savollarga javob berish;

O'quvchilar aytib o'tgan fikrlari to'planib tahlil va xulosa qilinadi va darsning eng so'nggi xulosasi chiqariladi

IV. Uyga vazifa:



O'tilgan mavzularni takrorlash.

Kelgusi darsda o'tiladigan mavzu bilan tanishib kelish, asosiy tushunchalarni eslab qolish, qo'shimcha manbalarni izlab topish.



Kelgusi yilda o'zgartirish kiritilsa yoki internetdan olingan yangiliklar bo'lsa yoziladi:

